



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 27-fevral

67-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

### Farg'ona tumani hokimligi huzurida "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-17-sonli Farmoniga muvofiq mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hamda qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lari hisobidan aholining hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etish, sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish va ekologiya va atrof-muhitni asrash, aholi salomatligi va sanitariya-gigiena sharoitini yaxshilashga qaratilgan hamda boshqa zarur tadbirlarni amalga oshirish uchun tuman hokimligi huzuridagi "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

#### QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-17-sonli farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Farg'ona tumani hokimligi huzuridagi "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" (keyingi o'rnlarda Jamg'arma deb ataladi) jamg'armasi tashkil etilsin.

3.Mazkur qarorga asosan:

2025-yil 1-martdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil-24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organdar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-son Farmonining 12-bandiga muvofiq "Ijtimoiy daftarlari" jamg'armalariga yo'naltiriladigan mablag'llarni taqsimlashning tartibi joriy etilganligi, unga muvofiq:

yo‘naltirilishi belgilangan mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)lardagi aholi soni va Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar soniga mutanosib ravishda "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armalariga o‘tkazilishi;

yo‘naltirilishi belgilangan mablag‘larning 70 foizi tuman (shahar)dagi aholi soni, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni va Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar sonidan kelib chiqib, tuman va shaharlardagi "Ijtimoiy daftarlar" jamg‘armalariga teng ulushda o‘tkaziladi. Bunda mablag‘larni tuman va shahrlar bo‘yicha taqsimlash tuman (shahar)ning toifasi, uning ixtisoslashuvi hamda kichik biznes uchun yaratilgan sharoitlardan kelib chiqib belgilanadigan tuzatish koeffitsientlarini qo‘llagan holda amalga oshirilishi;

"Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armalariga yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari qarorlari asosida amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.Tuman hokimining birinchi o‘rbinosari (O.Abduraximov), Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (U.Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov) "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armasi hamda "Ijtimoiy daftarlar" jamg‘armalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida;

- a) "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armasi hamda "Ijtimoiy daftarlar" jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan xaridlarni amalga oshirishda tovar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilarni maxsus axborot portalida e‘lon joylashtirmasdan va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlash;
- b) "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armasi mablag‘larini tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi hamda iqtisodiyot va moliya bo‘limi bilan kelishgan holda quyidagi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirish:
  - tumanda aholining hayot kechirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;
  - tumanda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish;
  - ekologiya va atrof-muhitni asrash, aholi salomatligi va sanitariya gigiena sharoitini yaxshilashga qaratilgan hamda boshqa zarur tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratsin.

5."Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg‘armasi ishchi guruhi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish maqsadida O‘zbekistan Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligidagi g‘aznachilik hisob raqami ochsin;

- jamg‘arma faoliyatini shakllantirish uchun mahalliy byudjetning qo‘s Shimcha mablag‘lari hamda qonun hujjatlari bilan taqilangan boshqa mablag‘lari hisobidan boshlang‘ich ustavini hal etsin.

7.Jamg‘armaning Ijro etuvchi kotibiga taqdim etilgan talabnoma asosida xarajatlarni maqsadli transhlar bilan moliyalashtirish vazifasi yuklatilsin.

8.Jamg‘armaning ishchi guruhi:

-Jamg‘arma mablag‘lari sarfini maqsadli yo‘nalishlarda foydalanilishini nazorat qilsin;

-Jamg‘arma ustavini shakllantirib borish yuzasidan tegishli takliflar kiritib borsin.

9.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rnbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman  
hokimi**



**INOMOV  
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**

Farg‘ona tuman hokimining  
2025-yil 27-fevraldag'i  
67-11-163-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

**Farg‘ona tumani hokimligi huzuridagi “Infratuzilma va ijtimoiy  
barqarorlik” jamg‘armasi ishchi guruhi**

**TARKIBI**

1.	O.Abduraximov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi raisi</b>
2.	M.Qodirxonov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari, <b>Ishchi guruhi raisi o‘rinbosari</b>
3.	U.Yuldashev	-	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari, <b>Ishchi guruhi raisi o‘rinbosari</b>
4.	A.Yusupov	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
5.	N.Sobirov	-	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
6.	U.Toshbekov	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
7.	G.Turlibekova	-	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
8.	M.To‘xtasinov	-	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman filiali, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
9.	B.Sobirov	-	“Tumangaz” ta’minoti filiali rahbari, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
10.	O‘.Turg‘unov		Tuman “Suvoqova” korxonasi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>
11.	X.Mirzayev		Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, <b>Ishchi guruhi a’zosi</b>

**Izoh:** Ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.